



Maktablar tizimi rahbarining reglamenti

Raqam: **A-830**

Mavzu: **KAMSITISHGA QARSHI SIYOSAT VA KAMSITISH TO'G'RISIDAGI ICHKI SIYOSATLARNI
KIRITISH TARTIBLARI**

Toifa: **O'QUVCHILAR**

Chiqarilgan sana: **2023 yil 19-oktyabr**

O'ZGARISHLARNING UMUMIY TAVSIFI

Ushbu reglament Maktablar tizimi rahbarining 2022-yil, 17-fevraldagi A-830 reglamentini almashtiradi va o'rnini bosadi.

O'zgarishlar:

- I.A.1-bo'lim (Teng bandlik imkoniyatlari) va I.C.1-bo'limga (DOE bilan o'zaro aloqada bo'luvchi ota-onalar va boshqa shaxslar uchun foydalanish imkoniyati) himoyalangan toifalar sifatida "bo'y" va "vazn" qo'shadi.



Maktablar tizimi rahbarining reglamenti

Raqam: **A-830**

Mavzu: **KAMSITISHGA QARSHI SIYOSAT VA KAMSITISH TO'G'RISIDAGI ICHKI SIYOSATLARNI
KIRITISH TARTIBLARI**

Toifa: **O'QUVCHILAR**

Chiqarilgan sana: **2023 yil 19-oktyabr**

QISQACHA SHARH

Ushbu reglament Nyu-York shahri Ta'lim boshqarmasining Antidiskriminatsiya siyosatini belgilaydi. Shuningdek, u xodimlar, ishga joylashish uchun ariza beruvchilar, o'quvchilarning otalari, o'quvchilar hamda DOE bilan hamkorlik qiladigan, DOE xodimlari yoki o'quvchilari bilan birga ishlaydigan, DOE inshootlaridan foydalanadigan yoki boshqacha tarzda DOE bilan o'zaro aloqada bo'lgan va himoyalangan toifalar asosida noqonuniy diskriminatsiya yoki shilqimlik, jumladan, jinsiy shilqimlik yoxud bunday shikoyatlar ortidan amalga oshirilgan o'ch olish holatlari bo'yicha shikoyat qilmoqchi bo'lgan shaxslar uchun ichki ko'rib chiqish jarayonini belgilaydi. Bu jarayon DOE xodimlari yoki DOEda ishlamaydigan, lekin uning xodimlari yoki o'quvchilari bilan birga ishlaydigan shaxslarga nisbatan shikoyatlarga taalluqlidir. Bir o'quvchi tomonidan boshqasiga nisbatan sodir etilgan tengqurlar orasidagi jinsiy shilqimlik va himoyalangan toifaga asoslangan ta'qib qilish, qo'rqitish va/yoki bulling bo'yicha shikoyatlar Maktablar tizimi rahbarining A-831 sonli "O'quvchilararo jinsiy shilqimlik" reglamenti yoki Maktablar tizimi rahbarining A-832 sonli "O'quvchilararo kamsitish, shilqimlik, qo'rqitish va/yoki bulling" reglamentiga muvofiq topshirilishi mumkin. O'quvchilar tomonidan DOE xodimlariga nisbatan sodir etilgan kamsitish/shilqimlik holatlari bo'yicha ayblovlar Maktablar tizimi rahbarining A-443 sonli reglamenti hamda O'quvchilar ta'limini qo'llab-quvvatlash bo'yicha shahar miqyosidagi xulq-atvor qoidalariga (Intizom kodeksi) muvofiq ko'rib chiqilishi shart.

I. SIYOSAT

Ushbu reglament Nyu-York shahri Ta'lim boshqarmasining (DOE) teng mehnat qilish va ta'lim olish imkoniyatlari to'g'risidagi siyosatini belgilaydi.

A. Teng mehnat imkoniyatlari

1. Amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq hamda shaxsning haqiqiy yoki taxmin qilinadigan quyidagi belgilari va maqomlaridan qat'iy nazar, teng mehnat imkoniyatlarini ta'minlash DOE siyosati hisoblanadi: irqi, terisining rangi, dini, e'tiqodi, etnik kelib chiqishi, milliy kelib chiqishi; chet ellik maqomi, fuqaroligi; yoshi, oilaviy ahvoli, sheriklik ahvoli; nogironligi, jinsiy oriyentatsiyasi, jinsi; bo'yi, vazni; harbiy maqomi, ishsizlik maqomi; muqaddam hibsga olinganlik yoki sudlanganlik holati; vasiy maqomi; iste'molchi sifatidagi kredit tarixi; irsiy moyillik xususiyatlari; jinsiy va reproduktiv salomatlikka oid qarorlari; oilaviy zo'ravonlik, jinsiy jinoyatlar yoki ta'qib qilish qurboni bo'lganlik maqomi.
2. Atamalar va himoyalangan toifalarning ta'riflari IX bo'limda ("Ta'riflar") keltirilgan.
3. Shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan himoyalangan toifalar asosidagi har qanday xarasment, jumladan, jinsiy xarasmentdan xoli bo'lgan ish joyi muhitini saqlab turish hamda DOEning kamsitishni taqiqlovchi jamoaviy shartnomalaridagi barcha qonunlar va qoidalarga rioya qilish DOE siyosatining uzviy qismi hisoblanadi.
4. Har qanday DOE xodimining xoh maktab hududida/DOE inshootlarida bo'lsin, xoh DOE dasturlari yoki tadbirlarida (jumladan, onlayn ta'lim/masofaviy ish jarayonida) bo'lsin, boshqa bir xodimni yuqorida qayd etilgan himoyalangan toifalardan birortasi asosida kamsitish va/yoki shilqimlikka, shu jumladan jinsiy shilqimlikka (IX bo'limda ta'riflanganidek) yo'l qo'yilishi ushbu reglamentning buzilishi hisoblanadi, basharti bunday xatti-harakatlar: (1) DOE xodimi yoki ishga ariza topshirgan nomzodni mehnat faoliyatining yomonroq shart-sharoitlari yoki imtiyozlarini taqdim etsa; yoki (2) dushmanlik, haqoratomuz yoki qo'rquvchi ish muhitini yaratsa.
5. Shuningdek, har qanday DOE xodimining ishga joylashish uchun ariza topshirgan nomzodlarga hamda DOE bilan hamkorlik qiladigan, DOE xodimlari yoki o'quvchilari bilan birga ishlaydigan, DOE inshootlaridan foydalanadigan yoki boshqacha tarzda DOE bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan yuqoridagi himoyalangan toifalarning istalgan biri asosida kamsituvchi harakat qilish va/yoki shilqimlik, jumladan, jinsiy shilqimlik qilishi ushbu reglamentning buzilishi hisoblanadi.
6. Qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno bo'lib, DOEga ishga qabul qilish jarayonida, jumladan, shartnoma shartlarini kelishish paytida, nomzodning avvalgi ish haqining tarixi to'g'risida ma'lumot so'rash yoki ushbu nomzod uchun ish haqi, imtiyozlar yoxud boshqa kompensatsiya miqdorini belgilashda uning avvalgi ish haqi tarixiga tayanish taqiqlanadi.
7. DOE xodimi bo'lmagan, biroq DOE xodimlari yoki o'quvchilari bilan birga ishlaydigan shaxslarga I.A-bo'limida tavsiflangan xatti-harakatlarni sodir etish taqiqlanadi va bunday holatlar haqida II.C va III.A-1 bo'limlariga muvofiq xabar berilishi shart.

B. Teng ta'lim olish imkoniyatlari

1. Amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq hamda shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan irqi, terisining rangi, dini, yoshi, e'tiqodi, etnik kelib chiqishi, milliy kelib chiqishi, chet ellik maqomi, fuqaroligi, nogironligi, jinsiy oriyentatsiyasi, jinsi yoki vaznidan qat'iy nazar, barcha o'quvchilarning DOE dasturlari, xizmatlari, tadbirlari va inshootlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashni o'z ichiga olgan holda, teng ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish DOE siyosati hisoblanadi.
2. Atamalar va himoyalangan toifalarning ta'riflari IX bo'limda ("Ta'riflar") keltirilgan.
3. Shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan himoyalangan toifalarning istalgan biri asosidagi har qanday shilqimlikdan, jumladan, jinsiy shilqimlikdan xoli bo'lgan ta'lim muhitini saqlab turish ham DOE siyosati hisoblanadi.
4. Har qanday DOE xodimining xoh maktab hududida/DOE inshootlarida bo'lsin, xoh DOE dasturlari yoki tadbirlarida, jumladan, onlayn ta'lim/masofaviy ish jarayonida bo'lsin, o'quvchini yuqorida qayd etilgan asoslarning istalgan biri bo'yicha kamsitadigan yoki unga nisbatan dushmanlik maktab muhitini yaratadigan xulq-atvorda bo'lishi ushbu reglamentning buzilishi hisoblanadi bunga (IX bo'limda ta'riflanganidek) jinsiy shilqimlik ham kiradi, basharti bunday xatti-harakatlar: (1) o'quvchining ta'lim dasturida, maktab tomonidan tashkil etilgan tadbirlarda yoki o'quvchi ta'limining har qanday boshqa jihatlarida ishtirok etish yoki ulardan foyda olish qobiliyatiga asossiz va jiddiy ravishda xalaqit bersa yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa; yoki (2) o'quvchining ruhiy, emotsional yoki jismoniy xotirjamligiga asossiz va jiddiy ravishda xalaqit bersa yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa; yoki (3) o'quvchida o'zining jismoniy xavfsizligidan xavotir yuzaga kelishiga asosli ravishda sabab bo'lsa yoki shunday bo'lishi oqilona kutilsa; yoki (4) o'quvchiga jismoniy shikast yetkazishga yoki emotsional zarar yetishiga asosli ravishda sabab bo'lsa yoki shunday bo'lishi kutilsa. Shuningdek, har qanday DOE xodimining maktab hududidan/DOE inshootlaridan tashqarida bo'lganda ham yuqorida qayd etilgan xatti-harakatlarni sodir etishi ushbu reglamentning buzilishi hisoblanadi, agarda bunday xulq-atvor ta'lim jarayonini buzsa yoki kelgusida buzishi yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa, yoxud maktab jamoasining sog'lig'i, xavfsizligi, ma'naviyati yoki farovonligiga xavf tug'dirsa yoki xavf tug'dirishi yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa.
5. Bunday xatti-harakatlar bular bilan cheklanib qolmagan holda o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin: yuqorida qayd etilgan himoyalangan toifalar asosida hojatxonalar, kiyinish xonalari, shkaflar xonalariga kirish va/yoki ekskursiyalarda ishtirok etishni rad etish; kiyinish qoidalari, sochni tartibga solish yoki tashqi ko'rinish standartlarining o'quvchini yuqoridagi himoyalangan toifalar bo'yicha kamsitadigan tarzda majburiy qo'llanilishi; yoki ism, olmoshdan foydalanish yoxud ismni talaffuz qilishda o'quvchini yuqoridagi himoyalangan toifalar asosida kamsitishga yo'l qo'yilishi (masalan, o'quvchining maktabda bildirgan gender identifikatsiyasiga mos kelmaydigan olmoshdan qasddan foydalanish).
6. DOE xodimi bo'lmagan, biroq o'quvchilar bilan birga ishlaydigan shaxslarga I.B-bo'limida tavsiflangan xatti-harakatlarni sodir etish taqiqlanadi va bunday holatlar haqida II.B va III.A-1 bo'limlariga muvofiq xabar berilishi shart.

C. Ota-onalar va DOE bilan aloqada bo'luvchi boshqa shaxslar uchun foydalanish imkoniyati

1. Amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq hamda shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan irqi, terisining rangi, dini, yoshi, e'tiqodi, etnik kelib chiqishi, milliy kelib chiqishi, chet ellik maqomi, fuqaroligi, nogironligi, jinsiy oriyentatsiyasi, jinsi, bo'yi, vazni, oilaviy ahvoli, sheriklik ahvoli yoki harbiy maqomidan qat'iy nazar, ota-onalar (ushbu reglamentda „ota-ona“ deganda o'quvchining ota-onasi yoki vasiysi, yoxud o'quvchiga nisbatan ota-onalik yoki vasiylik munosabatida bo'lgan har qanday shaxs, yoki emansipatsiya bo'lgan yoxud o'n sakkiz (18) yoshga to'lgan o'quvchining o'zi tushuniladi) hamda DOE bilan hamkorlik qiladigan, DOE xodimlari yoki o'quvchilari bilan birga ishlaydigan, DOE inshootlaridan foydalanadigan yoki boshqacha tarzda DOE bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa shaxslar uchun DOE dasturlari, xizmatlari va tadbirlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash DOE siyosati hisoblanadi. Ushbu bo'lim talablari buzilganini iddao qiluvchi shikoyatlar III.A.2 va III.A.3-bo'limlardagi tartib-qoidalarga muvofiq topshirilishi mumkin va ular tegishli keyingi choralar ko'rish uchun yo'naltirilishi mumkin.

D. Xulq-atvor, kutilmalar va keyingi choralar

1. Har bir DOE xodimi o'zi xizmat qilayotgan maktab va idoralarda o'rnak bo'ladigan namuna bo'lishi kutiladi hamda ushbu reglamentda qamrab olingan himoyalangan toifalarning istalgan biri asosidagi kamsitish va shilqimlikdan, jumladan, jinsiy shilqimlikdan va/yoki tazyiq holatlaridan xoli bo'lgan ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim hamda ish muhitini saqlab turish uchun javobgardir.
2. Yuqoridagi I.A va I.B-bo'limlarida taqiqlangan xulq-atvor og'zaki, imo-ishorali, jismoniy, yozma yoki texnologiyalar orqali elektron shaklda uzatiladigan harakatlarni o'z ichiga oladi (bunga internet, mobil telefon, elektron pochta, cho'ntak kompyuterlari, matnli xabarlar, ilovalar, simsiz aloqa qurilmalari, ijtimoiy tarmoqlar, chat xonalari, o'yin tizimlari va bloglar kiradi, lekin bular bilan cheklanib qolmaydi).
3. I.A va I.B-bo'limlarida taqiqlangan xulq-atvor qasddan haqoratomuz bo'lishi yoki muayyan bir shaxs yoxud guruhga qaratilganidan qat'iy nazar, ushbu reglamentni buzgan hisoblanadi.
4. Ushbu reglamentni buzuvchi xulq-atvorni sodir etgan DOE xodimi, bu xatti-harakatlar federal, shtat yoki mahalliy kamsitishga qarshi qonunlarni buzish darajasiga yetmagan bo'lsa ham, tegishli keyingi choralarga yoki intizomiy jazoga, hatto ishdan bo'shatishgacha bo'lgan choralarga tortilishi mumkin.
5. Ushbu reglamentdagi hech bir qoida maktab direktori yoki supervayzerga DOE xodimi bilan ushbu reglamentni boshqacha tarzda buzmaydigan, lekin nomaqbul bo'lgan xulq-atvori uchun tushuntirish ishlari olib borishiga yoki uni intizomiy jazoga tortishiga to'sqinlik qilmaydi. "Supervayzer" atamasi rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan va maktabdan tashqari boshqa binoda bo'lishi mumkin bo'lgan DOE xodimini anglatadi.
6. Barcha DOE xodimlari Teng imkoniyatlar va xilma-xillikni boshqarish boshqarmasi (OEO) tomonidan chaqirilganda suhbatga kelishlari hamda OEOning shikoyatlar bo'yicha olib borayotgan surishtiruvlariga hamkorlik qilishlari shart. Tomonlar va/yoki

guvohlar surishtiruvda ishtirok etmagan taqdirda, OEO imkon qadar mavjud sharoitlar doirasida surishtiruv o'tkazadi.

7. OEO surishtiruviga ta'sir o'tkazish yoki unga to'sqinlik qilishga bo'lgan har qanday urinish ushbu reglamentning buzilishi hisoblanadi, bu haqda zudlik bilan Maxsus surishtiruv komissari idorasiga (SCI) xabar berilishi shart va bu intizomiy choralar ko'rilishiga olib kelishi mumkin.
8. Ish joyidagi kamsituvchi amaliyotlarga e'tiroz bildirgan, yuqoridagi I.A, I.B yoki I.C-bo'limlarida tavsiflangan himoyalangan toifalarning istalgan biri asosida kamsitish yoki shilqimlik ustidan shikoyat qilgan, yoxud kamsitish bo'yicha ichki yoki tashqi shikoyatni topshirgan yoki uning surishtiruvida ishtirok etgan har qanday shaxsga nisbatan o'ch olish holatlarini taqiqlash DOE siyosati hisoblanadi. Shaxslarning himoyalangan faoliyatda ishtirok etganliklari sababli ularga nisbatan amalga oshirilgan har qanday salbiy harakat o'ch olish deb baholanadi.
9. Quyidagi I.D.10-bo'limda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno bo'lib, I.A.7 va II.B.6-bo'limlariga muvofiq topshirilgan shikoyatlar III-bo'limda ko'rsatilganidek OEO tomonidan tekshirilishi yoki tegishli keyingi choralarni ko'rish uchun tashqi ish beruvchiga yo'naltirilishi mumkin.
10. OEO o'quvchiga nisbatan jinsiy shilqimlik sodir etilgani to'g'risidagi barcha shikoyatlarni tegishli keyingi choralarni ko'rish uchun SCIga yuborishi shart.

II. XABAR BERISH

- A. DOE xodimlari, ishga joylashish uchun ariza topshirgan nomzodlar, ota-onalar, o'quvchilar hamda DOE bilan hamkorlik qiladigan, DOE xodimlari yoki o'quvchilari bilan birga ishlaydigan, DOE inshootlaridan foydalanadigan yoki boshqacha tarzda DOE bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa shaxslar III.A-bo'limida belgilangan tartibda, ushbu reglamentni buzishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga duch kelganlari bo'yicha shikoyat topshirishlari mumkin.
- B. O'quvchiga nisbatan sodir etilgan va I.B-bo'limini buzishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan xabardor bo'lgan yoki o'quvchi bunday xatti-harakatlarning qurboni bo'lgani haqida xabar, ma'lumot yoki bildirishnoma olgan har qanday DOE xodimi ushbu holat haqida bir (1) o'quv kuni ichida maktab direktoriga/uning mas'ul vakiliga (yoki xabar beruvchi xodim maktabda ishlamaydigan bo'lsa, o'z supervayzeriga) og'zaki ravishda xabar berishi shart. Og'zaki xabar berilganidan keyin ikki (2) o'quv kuni ichida, xabar bergan DOE xodimi quyidagi III.A.1-bo'limda belgilangan tartibda elektron shaklda yozma shikoyat topshirishi hamda maktab direktoriga/uning mas'ul vakiliga yoki supervayzeriga shikoyat topshirilgani haqida ma'lum qilishi shart. Agar ayblov maktab direktori yoki supervayzerning ustidan bo'lsa, xabar beruvchi DOE xodimi faqatgina III.A.1-bo'limda belgilangan tartibda OEOga elektron shaklda shikoyat topshirishi kifoya qiladi.
- C. I.A-bo'limini buzishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan xabardor bo'lgan har qanday maktab direktori yoki supervayzer zudlik bilan quyidagi III.A.1-bo'limda belgilangan tartibda OEOga onlayn shikoyat topshirishi shart. Maktab direktori yoki supervayzerning ushbu bandga muvofiq OEOga shikoyat topshirmasligi ushbu reglamentning buzilishi hisoblanadi.
- D. Shikoyat topshirishi majburiy bo'lgan shaxslardan tashqari boshqa shaxslarga ham ushbu

reglamentni buzishi mumkin bo'lgan xulq-atvor haqida III.A.2-bo'limiga muvofiq xabar berish qat'iy tavsiya etiladi.

- E. DOE xodimlari jinoiy faoliyatni tashkil qilishi mumkin bo'lgan har qanday taxminiy xatti-harakatlar to'g'risidagi barcha xabarlar bo'yicha Maktablar tizimi rahbarining A-412 sonli reglamentida (<https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/a-412-security-in-the-schools-english>) belgilangan siyosat va tartib-qoidalariga muvofiq Nyu-York shahri Polisiya departamentini (NYPD) xabardor qilishlari shart.

III. SHIKOYAT KIRITISH TARTIB-QOIDALARI

A. Shikoyatlarni kiritishga oid tartib-qoidalar

1. II.B va II.C-bo'limga asosan tuzilgan elektron shikoyat shakllari <https://www.nycenet.edu/oeo> manzilidagi onlayn shikoyat kiritish shakli orqali to'ldirilishi kerak.
2. II.B va II.C-bo'limlariga muvofiq shikoyat topshirishi majburiy bo'lgan shaxslardan tashqari boshqa shaxslar ushbu reglamentning oxirida ko'rsatilgan telefon raqami yoki manzillar orqali OEOga elektron pochta, telefon, pochta orqali yoki shaxsan murojaat qilish yo'li bilan shikoyat topshirishlari mumkin. Jinsiy yoki gender asosidagi shilqimlik yoxud kamsitish bo'yicha shikoyatlar, shuningdek, ushbu reglamentning oxirida ko'rsatilgan telefon raqami yoki manzillar orqali DOEning Title IX koordinatoriga elektron pochta, telefon, pochta orqali yoki shaxsan ma'lum qilish yo'li bilan ham topshirilishi mumkin.
3. II.B va II.C-bo'limlariga muvofiq shikoyat topshirishi majburiy bo'lgan shaxslardan tashqari boshqa shaxslar ushbu reglament buzilganligi to'g'risida anonim shikoyat topshirishlari ham mumkin. OEO taqdim etilgan ma'lumotlar asosida anonim shikoyatlarni ko'rib chiqadi va ularni qanday tartibda qayta ishlash kerakligini belgilaydi.
4. Yuqoridagi II.B va II.C-bo'limlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno bo'lib, shikoyatlarning tezkor, har tomonlama va adolatli hal etilishini ta'minlash maqsadida barcha shikoyatlar imkon qadar tezroq va taxmin qilinayotgan voqea sodir bo'lganidan keyin kechi bilan bir (1) yil ichida OEOga topshirilishi shart. Favqulodda holatlar mavjud bo'lganda, OEO taxmin qilinayotgan voqeadan bir (1) yildan ko'proq vaqt o'tgach topshirilgan shikoyatlarni ham tekshirishi mumkin.

O'quvchilarga nisbatan sodir etilgan va ushbu reglamentning I.B-bo'limida taqiqlangan xulq-atvor to'g'risidagi shikoyatlarni topshirish uchun muddat cheklovi qo'llanilmaydi.

B. Ota-onalarni xabardor qilish

1. Agar o'quvchiga nisbatan ushbu reglamentda taqiqlangan xulq-atvor sodir etilgani to'g'risidagi shikoyat jabrlanuvchi deb taxmin qilinayotgan o'quvchining ota-onasidan boshqa shaxs tomonidan topshirilgan bo'lsa, maktab direktori/uning mas'ul vakili jabrlanuvchining ota-onasini shikoyat topshirilgani haqida zudlik bilan xabardor qilishi

shart.

2. Agar maktab direktorining o'zi shikoyat obyekti bo'lsa, u holda superintendant/uning mas'ul vakili ota-onani zudlik bilan xabardor qilishi lozim.

C. Qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari

1. Shikoyat topshirilgandan so'ng, har qanday tomonga yoki guvohlarga, hatto xabar berilgan holat surishtiruvga olib kelmagan yoki ayblovlar o'z tasdig'ini topmagan bo'lsa ham, zaruratga qarab qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari taklif qilinishi mumkin.
2. I.A yoki I.B-bo'limlarida taqiqlangan xulq-atvor bo'yicha shikoyat kelib tushganda, OEO maktab direktori va/yoki supervayzerni xabardor qiladi, ular esa o'z navbatida tomonlar va guvohlar uchun qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari zarurligini belgilaydi hamda ushbu choralar o'quvchilar va DOE xodimlari uchun hujjatlashtirilishini ta'minlaydi.
3. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin bular bilan cheklanib qolmaydi:
 - a. maktab ichidagi yoki maktabdan tashqaridagi tibbiy xizmatlarga yo'naltirish;
 - b. psixologik-pedagogik yordam choralari (masalan, maktab ijtimoiy xodimi, metodist-maslahatchi, psixolog yoki boshqa tegishli maktab resurslariga yo'naltirish);
 - c. maslahat berish, qo'llab-quvvatlash va/yoki ta'lim yoxud ruhiy salomatlik xizmatlarini taqdim etish uchun jamoat tashkilotlariga yo'naltirish;
 - d. o'quv jarayonidagi ko'mak va o'zgartirishlar (masalan, darslar, tushlik/tanaffus yoki maktabdan tashqari to'garaklar jadvalini o'zgartirish; topshiriqlar muddatini uzaytirish); va/yoki
 - e. individual qo'llab-quvvatlash rejasini ishlab chiqish.
4. Mehnat faoliyatiga oid qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin bular bilan cheklanib qolmaydi (amaldagi jamoaviy shartnomalarga muvofiq ravishda):
 - a. mehnat ta'tillari;
 - b. ish jadvalini o'zgartirish;
 - c. mehnat vazifalarini o'zgartirish; va/yoki
 - d. ish joyini o'zgartirish.

D. Shikoyatlarni surishtirishga oid tartib-qoidalar

1. Shikoyat kelib tushgach, OEO ushbu shikoyatda mazkur reglament bilan taqiqlangan kamsitish, shilqimlik va/yoki o'ch olish holatlari iddao qilingani yoki qilinmaganini aniqlaydi. Agar OEO taqdim etilgan ayblovlar ushbu reglament bilan taqiqlangan harakatlar doirasiga kirmasligini aniqlasa, u holda, zaruratga qarab, tegishli keyingi choralarni ko'rish uchun shikoyatni mas'ul bo'limga yo'naltiradi.
2. I.D.9-bo'limda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno bo'lib, agar OEO shikoyatda ushbu reglament bilan taqiqlangan xulq-atvor bayon etilgan deb topsa, mazkur bo'limda tavsiflangan tartib-qoidalarga muvofiq surishtiruv o'tkazadi. I.A-bo'limi bilan

taqiqlangan jinsiy va/yoki gender asosidagi shilqimlik hamda 1.B-bo'limi bilan taqiqlangan o'quvchiga nisbatan gender asosidagi shilqimlik bo'yicha shikoyatlarni OEOning Title IX koordinatori, Title IX bo'yicha mas'ul vakillari yoki OEOning boshqa surishtiruvchisi tekshiradi.

3. Agar OEO surishtiruv boshlasa, bu haqda tomonlarni (va o'quvchi hisoblangan tomonning ota-onasini) yozma ravishda zudlik bilan xabardor qiladi va quyidagilarni ma'lum qiladi:
 - a. OEO surishtiruv o'tkazadi, bu jarayon tomonlar va guvohlarni so'roq qilish hamda tegishli dalillarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi;
 - b. Ushbu reglamentda taqiqlangan xulq-atvorni sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslar ko'rsatilgan ayblovlarga nisbatan raddiya berish huquqiga ega;
 - c. Tomonlar har qanday tegishli dalillarni taqdim etish va/yoki guvohlarning ismini ko'rsatish huquqiga ega;
 - d. Shikoyatda tomon hisoblangan DOE xodimlari surishtiruv suhbatida ishtirok etish uchun kasaba uyushmasi vakilini yoki advokat bo'lmagan boshqa vakilni tanlash huquqiga ega, bosharti ushbu vakil mazkur ish bo'yicha tomon yoki guvoh sifatida jalb etilmagan bo'lsa;
 - e. Ish ko'rib chiqilayotgan vaqtda tomonlar, zaruratga qarab, qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralaridan foydalanishi mumkin; va
 - f. Asosli sabablarga ko'ra ushbu muddat uzaytirilgan holatlar mustasno bo'lib, OEO shikoyatni qabul qilib olgan kundan boshlab to'qson (90) o'quv kuni ichida yozma qaror chiqariladi.
4. OEO tomonlar va barcha tegishli guvohlar bilan suhbat o'tkazadi hamda har qanday daxldor dalillarni to'playdi.
5. Surishtiruv yakunlangach, OEO ushbu reglament buzilgani yoki buzilmagani to'g'risida yozma xulosa va tavsiyalar tayyorlaydi hamda aniqlangan holatlar va tavsiyalar bo'yicha hisobotni Maktablar tizimi rahbariga yoki uning mas'ul vakiliga taqdim etadi.
6. Asosli sabablarga ko'ra ushbu muddat uzaytirilgan holatlar mustasno bo'lib, Maktablar tizimi rahbari yoki uning mas'ul vakili OEO hisobotini ko'rib chiqadi va OEO shikoyatni qabul qilib olgan kundan boshlab to'qson (90) o'quv kuni ichida ushbu reglament buzilgani yoki buzilmagani to'g'risida yozma qaror chiqaradi.
7. Tomonlar (va o'quvchi hisoblangan tomonning ota-onasi) qabul qilingan qaror haqida yozma ravishda xabardor qilinadi.
8. Agar asosli sabablarga ko'ra surishtiruv yakunlanishi yoki qaror chiqarilishi to'qson (90) maktab kuni ichida imkonli bo'lmasa, OEO ariza beruvchi va javobgarni muddat uzaytirilganligi hamda qaror chiqarilishi kutilayotgan yangi vaqt oralig'i haqida xabardor qiladi.
9. Agar ushbu reglament talablari buzilgani to'g'risida qaror qabul qilinsa, OEO maktab direktori yoki supervayzer bilan maslahatlashadi, ular esa o'z navbatida intizomiy yoki tuzatish choralari talab etilishi hamda qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari yoxud boshqa keyingi harakatlarning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.
10. Agar reglament buzilmagani to'g'risida qaror qabul qilinsa, OEO III.C-bo'limida belgilangan tartibda tegishli maktab direktori yoki supervayzer bilan maslahatlashgan holda qo'llab-quvvatlash va/yoki aralashuv choralari yoki boshqa keyingi harakatlarning zarurligini aniqlaydi.

11. OEO har bir shikoyat bo'yicha alohida surishtiruv jildini yuritadi va saqlaydi.

E. Maxfiylik

Ushbu reglament doirasida topshirilgan shikoyatlar bo'yicha barcha tomonlar va guvohlarning shaxsiy hayoti daxlsizligini hurmat qilish DOE siyosati hisoblanadi. Biroq, maxfiylikka bo'lgan ehtiyoj qonuniy surishtiruvlar bilan hamkorlik qilish, ayblanuvchiga tegishli huquqiy himoya choralarini taqdim etish va/yoki shikoyatni ko'rib chiqish bo'yicha tegishli keyingi choralarni ko'rish majburiyati bilan muvozanatlashtirilishi shart. Shu sababli, muayyan tegishli holatlarda shikoyatga oid ma'lumotlarni oshkor qilish talab etilishi mumkin.

F. Kamsitish bo'yicha yolg'on ayblovlar

Kamsitish holati yuzasidan bila turib yolg'on ayblov qo'ygan yoki shikoyatni tekshirish jarayonida bila turib yolg'on ma'lumot taqdim etgan shaxs intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Xolis niyatda bildirilgan shikoyat, hatto o'z tasdig'ini topmagan taqdirda ham, yolg'on ayblov deb hisoblanmaydi.

IV. BU TARTIB-QOIDALARNING YOYILISHI

- A. Qo'shimcha ravishda, har bir idora va maktab DOE kamsitishga qarshi siyosatini (<https://www.schools.nyc.gov/about-us/policies/non-discrimination-policy>) o'z sahifalarida joylashi va unda OEO kontakt ma'lumotlari hamda bu reglament nusxasini qayerdan olish mumkinligi ko'rsatilishi lozim. DOEning Kamsitishga qarshi siyosati hamda ushbu reglamentda belgilangan shikoyat qilish va xabar berish tartib-qoidalari to'g'risidagi bildirishnoma har yili barcha DOE xodimlariga, jumladan maktab direktorlari va supervayzerlariga taqdim etilishi shart.
- B. Maktablar tizimi rahbarining A-831 va A-832 sonli reglamentlariga muvofiq, har bir maktab Xavfsizlik va yoshlar rivojlanishi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan yozma materiallarni (<https://www.schools.nyc.gov/school-life/school-environment/respect-for-all/respect-for-all-handouts> havolasi orqali mavjud) har yili barcha maktab xodimlari, ota-onalar va o'quvchilarga tarqatishi yoki elektron shaklda taqdim etishi shart va bu materiallarda mazkur reglamentlarda belgilangan siyosat va tartib-qoidalar, jumladan, qanday qilib shikoyat berish tartiblari aks ettirilgan bo'ladi. Shuningdek, mazkur materiallar o'quvchilar va ota-onalarni DOEning Kamsitishga qarshi siyosatidan hamda yuqoridagi I.B-bo'limida tavsiflangan himoyalangan toifalarning istalgan biri asosida o'quvchilar va ota-onalar tomonidan DOE xodimlariga nisbatan kamsitish/shilqimlik bo'yicha shikoyat topshirish tartib-qoidalari haqida xabardor qiladi.

V. NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARGA ASOSLI QULAYLIKLAR YARATISH

A. Xodimlar va ishga ariza beruvchilar

Nogironligi bo'lgan, tegishli malakaga ega har qanday DOE xodimi (jumladan, vaqtincha o'rindosh xodim) o'zining hozirgi lavozimidagi asosiy majburiyatlarni bajarishda

ko'maklashish uchun asosli qulayliklar yaratilishini so'rashi mumkin. O'zaro hamkorlik jarayonini boshlash va konstruktiv muloqotga kirishish uchun DOE xodimlariga dastlab ushbu so'rovni o'z supervayzerlari bilan muhokama qilish qat'iy tavsiya etiladi. Agar xodim qabul qilingan qarorga rozi bo'lmasa yoki so'rov supervayzer orqali ta'minlanishi imkonsiz bo'lsa, xodim DOEning Ta'tillarni rasmiylashtirish bo'yicha onlayn o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tizimi (SOLAS) orqali ariza topshirishi mumkin. SOLAS tizimida yuborilgan so'rovlar DOEning HR Connect Tibbiyot, ta'tillar va arxiv ishlari bo'limi hamda DOEning Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sharoit yaratish boshqarmasi (ODA) tomonidan ko'rib chiqiladi.

Nogironligi bo'lgan, tegishli malakaga ega har qanday bo'lajak xodim (ishga joylashish uchun ariza topshirgan nomzod) nogironligi bo'lmagan boshqa nomzodlar bilan teng asosda ariza topshirish va tanlov jarayonida ishtirok etish maqsadida o'zi bilan suhbat o'tkazayotgan guruh yoki ODA bilan bog'lanish orqali asosli qulayliklar yaratilishini so'rash huquqiga ega.

Asosli qulayliklar yaratish jarayoni to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar DOEning 2020–2021-yillardagi 5-sonli Kadrlar bo'yicha memorandumida keltirilgan.

B. O'quvchilar

Maktablar tizimi rahbarining A-710 sonli reglamenti ("504-bo'lim: O'quvchilar uchun siyosat va tartib-qoidalar", <https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/a-710>) DOE maktablari va dasturlariga qatnaydigan, 1973-yildagi Reabilitatsiya to'g'risidagi qonunning 504-bo'limida belgilangan tartibda nogironligi bo'lgan va tegishli malakaga ega hisoblangan hamda DOE dasturlari va tadbirlarida nogironligi bo'lmagan tengdoshlari bilan teng asosda ishtirok etish uchun asosli qulayliklarga muhtoj bo'lgan o'quvchilar uchun DOE siyosati va tartib-qoidalarini, jumladan shikoyat qilish tartiblarini belgilaydi.

VII. MUQOBIL SHIKOYAT KIRITISH TARTIB-QOIDALARI

Ushbu ichki tartib-qoidalar biror shaxsning huquqiy himoyaning boshqa usullaridan foydalanish, jumladan, quyida ko'rsatilgan tashqi idoralarga shikoyat arizalarini topshirish huquqini inkor etmaydi:

- AQSH Ta'lim vazirligi, Fuqarolik huquqlari bo'yicha boshqarmasi
- AQSH Teng mehnat imkoniyatlari bo'yicha komissiyasi
- Nyu-York shtati Inson huquqlari bo'yicha boshqarmasi
- Nyu-York shahri Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi

Ushbu idoralarga ariza topshirish muddatlari turlicha bo'lishi mumkin. Shikoyat arizasi tashqi idoraga yoki tegishli yurisdiksiyaga ega bo'lgan sudga topshirilgan taqdirda, OEO mazkur ishni ko'rib chiqish uchun DOEning Bosh yuridik maslahatchi idorasiga o'tkazadi.

VIII. SO'ROVLAR

Ushbu reglament bo'yicha so'rovlar quyidagi manzilga yuborilishi kerak:

Teng imkoniyatlar va xilma-xillikni boshqarish boshqarmasi

NYC Ta'lim Departamenti

110 William Street, 15th Floor

New York, NY 10038

Telefoni: 718-935-3320

E-pochta: oeoinquiries@schools.nyc.gov

IX modda koordinatori

110 William Street, 15th Floor

New York, NY 10038

Telefoni: 718-935-4987

E-pochta: [Title IX Inquiries@schools.nyc.gov](mailto:Title_IX_Inquiries@schools.nyc.gov)

Vebsayt: <https://www.schools.nyc.gov/about-us/policies/non-discrimination-policy/title-ix>

Nogironlar uchun moslashtirilgan sharoitlar yaratish bo'limi

E-pochta: ODA@schools.nyc.gov

IX. TA'RIFLAR

Quyidagi ma'lumotlar shaxslarga kamsituvchi amaliyotlardan qochishda ko'maklashish uchun yo'riqnoma sifatida taqdim etilgan bo'lib, u to'liq va tugal ro'yxat hisoblanmaydi.

Chet ellik maqomi / Fuqarolik: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan immigratsiya maqomi yoxud Amerika Qo'shma Shtatlaridan boshqa mamlakat fuqarosi bo'lganlik maqomi. Federal, shtat yoki shahar qonunlarida yoxud qoidalarida bunday imtiyoz aniq ruxsat etilgan yoki talab qilingan holatlarda, har qanday shaxsning chet ellik maqomi yoki fuqaroligiga asoslanib kamsitishi, shaxsning chet ellik maqomi yoki fuqaroligi to'g'risida ma'lumot so'rashi yoxud Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarosi yoki mahalliy aholisiga ustunlik berishi qonunbuzarlik hisoblangan kamsituvchi amaliyot deb topilmaydi.

Vasiy maqomi: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan vasiylik maqomi. Vasiy atamasi voyaga yetmagan bolaga yoki parvarishga muhtoj shaxsga to'g'ridan-to'g'ri va doimiy ravishda g'amxo'rlik ko'rsatuvchi shaxsni anglatadi. Parvarishga muhtoj shaxs deganda quyidagi belgilarga ega bo'lgan nogironligi bor shaxs tushuniladi: (i) vasiyning qaramog'idagi qarindoshi bo'lgan yoki uning xonadonida birga istiqomat qiladigan shaxs; va (ii) tibbiy yordam olishda yoxud kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishda vasiyga tayanadigan shaxs. Qaramog'idagi qarindoshlar qatoriga vasiyining farzandi, turmush o'rtog'i, fuqarolik nikohidagi sherigi, ota-onasi, tug'ishgan akasi/ukasi/opasi/singlisi, nabirasi yoki bobosi/buvisi, yoxud vasiyning turmush o'rtog'i yoki fuqarolik nikohidagi sherigining farzandi yoki ota-onasi, shuningdek, vasiy bilan oilaviy munosabatlarda bo'lgan har qanday boshqa shaxs kiradi.

Terining rangi: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan teri rangi.

Iste'molchi sifatidagi kredit tarixi: shaxsning kreditga layoqatliligi, kredit reytingi, kredit sig'imi

yoki to'lovlar tarixi. Qonun yoki qoidalar bilan aniq ruxsat etilgan yoxud talab qilingan holatlardan tashqari, ish beruvchilar ishga qabul qilish, mehnatga haq to'lash hamda mehnat faoliyatining boshqa shart-sharoitlarini belgilash kabi har qanday mehnatga oid qarorlarni qabul qilish maqsadida nomzod yoki xodimning iste'molchi sifatidagi kredit tarixini so'rashi yoki undan foydalanishi taqiqlanadi.

Nogironlik: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan jismoniy, tibbiy, ruhiy yoki psixologik nuqsonlari, yoxud bunday nuqsonlarning o'tmishdagi tarixi yoki qaydlari, shuningdek, atrofdagilar tomonidan nogironlik deb qabul qilinadigan har qanday holat. 1973-yildagi Reabilitatsiya to'g'risidagi qonunning 504-bo'limiga muvofiq, nogironligi bo'lgan o'quvchilarga mos sharoitlar yaratish to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun Maktablar tizimi rahbarining A-710 sonli reglamentiga (<https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/a-710>) qarang.

Etnik kelib chiqish / Milliy kelib chiqish: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan milliy kelib chiqishi yoxud etnik mansubligi. Milliy kelib chiqish tushunchasi irq, terisining rangi yoki din va e'tiqoddan farq qiladi, chunki bir nechta irq va dinga mansub insonlar yoki ularning ajdodlari bitta davlatdan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. "Milliy kelib chiqish" atamasi barcha milliy guruhlarini hamda umumiy ajdodlar, meros yoki o'tmishga ega bo'lgan shaxslar guruhlarini o'z ichiga oladi; shuningdek, muayyan milliy kelib chiqishga mansub shaxs yoki shaxslar bilan nikohda bo'lgan yoxud ular bilan aloqador bo'lgan shaxslarni ham qamrab oladi.

Gender: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan jinsi, homiladorligi yoxud homiladorlik yoki tug'ruq bilan bog'liq holatlari. Gender asosidagi kamsitishni taqiqlash jinsiy shilqimlikni ham o'z ichiga oladi.

"Gender" atamasi, shuningdek, shaxsning tug'ilganida belgilangan jinsidan qat'i nazar, uning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan gender identifikatsiyasi va gender ifodasini, ya'ni shaxsning o'zi haqidagi tasavvuri, tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, o'zini namoyon qilishi yoki genderga oid boshqa xususiyatlarini anglatadi. Gender asosidagi kamsitish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin, lekin bular bilan cheklanib qolmaydi: jins belgisiga ko'ra hojatxonalar, kiyinish xonalari, shkaflar xonalari va/yoki DOE dasturlari yoxud tadbirlariga kirishni rad etish yoki ism yoxud olmoshdan kamsituvchi tarzda foydalanish (masalan, shaxsning maktabda, ishda yoki boshqa DOE dasturi yoxud tadbirida bildirgan gender identifikatsiyasiga mos kelmaydigan olmoshdan qasddan foydalanish).

Harbiy maqom: shaxsning Amerika Qo'shma Shtatlari harbiy xizmatida yoki shtat harbiy xizmatida ishtirok etishi, jumladan, AQSH Qurolli Kuchlari, Armiya Milliy gvardiyasi, Harbiy-havo kuchlari Milliy gvardiyasi, Nyu-York dengiz militsiyasi, Nyu-York gvardiyasi hamda qonun bilan vakolat berilgan federal yoki shtat hukumati tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha kuchlardagi ishtiroki.

Sheriklik holati: shaxsning rasman ro'yxatga olingan fuqarolik nikohida bo'lganlik bo'yicha haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan maqomi.

Irsiy moyillik xususiyati: genetik test orqali aniqlangan yoxud shaxs yoki uning oila a'zosidan olingan ma'lumotlardan kelib chiqib taxmin qilingan, ilmiy yoki tibbiy jihatdan shaxsni yoki uning avlodini biror kasallik yoxud nogironlikka moyil qiladi deb hisoblanadigan, yoki jismoniy yoxud ruhiy kasallik yoki nogironlik rivojlanishining statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori xavfi bilan bog'liq bo'lgan har qanday irsiy gen yoki xromosoma yoxud ulardagi mutatsiyalar.

Muqaddam gamalanganlik/Sudlanganlik: jinoiy huquqbuzarliklar uchun muqaddam hibsga olinganlik va sudlanganlik to'g'risidagi qaydlar. Shartli ish taklifi uzaytirilgandan so'ng, DOE

shaxsning o'tmishini tekshirishni, jumladan, barmoq izlari haqidagi ma'lumotlarni talab qiladi. Ushbu ma'lumotlar Maktablar tizimi rahbarining C-105 sonli reglamenti (Pedagogik va ma'muriy lavozimlarga nomzodlarning o'tmishini tekshirish hamda xodimlar qamalgan holatlardagi tartib-qoidalar, <https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/c-105-2-11-2003-final-remediated-wcag2-0> hamda barcha tegishli qonunlar va qoidalarga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Irq: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan "irqi". Bunga tarixan irq bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar, masalan, sochlarning tuzilishi va himoya qiluvchi soch turmaklari (masalan, o'rimlar, buralgan sochlar, pariklar yoki boshqa bosh kiyimlar), terining rangi yoxud yuz tuzilishining muayyan belgilari kiradi.

Din/E'tiqod: shaxsning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan dini yoxud e'tiqodi (dinni tashkil etishidan qat'i nazar, fundamental qarashlar majmuasi). Diniy sabablarga ko'ra asosli qulayliklar yaratishni so'rayotgan xodim Maktablar tizimi rahbarining C-606 sonli reglamentida ("Diniy rasm-rusumlarni bajarish uchun beriladigan ta'til", <https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/c-606-english> belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishi kerak. Diniy sabablarga ko'ra asosli qulayliklar yaratishni so'rayotgan o'quvchi Maktablar tizimi rahbarining A-630 sonli reglamentida ("O'quvchilar uchun diniy qulayliklar yaratish", <https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/a-630-english> belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishi lozim. **Maoshlar tarixi:** "Maoshlar tarixi" nomzodning joriy yoki avvalgi ish haqi, imtiyozlari yoki boshqa kompensatsiyalarini o'z ichiga oladi, biroq nomzod mahsuldorligining obyektiv ko'rsatkichlarini (masalan, tushum, sotuvlar yoki boshqa ishlab chiqarish hisobotlarini) qamrab olmaydi. Qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan holatlardan (masalan, DOEni ichidagi ichki o'tkazish yoki lavozimni ko'tarish) tashqari, DOEga ishga qabul qilish jarayonida, jumladan, shartnoma shartlarini kelishish paytida, nomzodning maoshlar tarixi to'g'risida ma'lumot so'rash yoki uning maoshlar tarixiga tayanib unga ish haqi, imtiyozlar yoxud boshqa kompensatsiya miqdorini belgilash taqiqlanadi.

Jinsiy shilqimlik:

Jinsiy shilqimlik turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, jumladan: ochiqdan-ochiq jinsiy takliflar yoki tahdidlar, jinsiy yaqinlikka urinishlar, jinsiy xarakterdagi iltifotlar so'rash, jinsiy shama qilishlar, jinsiy ma'nodagi sharhlar, jinsiy mazmundagi hazillar, uyatsiz imo-ishoralar, og'zaki, imo-ishorali, jismoniy, yozma yoki texnologiyalar orqali elektron shaklda uzatiladigan xulq-atvor yoxud muloqot, shuningdek, boshqa shaxsning tanasiga tegish, silash, chimchilash yoki ishqalanish kabi jismoniy aloqalar. Bunday xatti-harakatlar bir xil jinsdagi yoki turlicha jinsdagi shaxslarga qaratilganidan qat'i nazar, jinsiy shilqimlik deb baholanishi mumkin va ayni paytda jinoiy harakatni ham tashkil qilishi mumkin.

A. Mehnat faoliyatiga oid jinsiy shilqimlik:

Ushbu reglamentning 1.A-bo'limi bilan taqiqlangan jinsiy shilqimlik quyidagi holatlarni qamrab oladi:

1. shaxs tomonidan bunday xatti-harakatlarga rozi bo'lish yoki ularni rad etish ushbu shaxsga daxldor bo'lgan mehnatga oid qarorlarni qabul qilish uchun asos qilib olinsa yoxud bevosita yoki bilvosita uning mehnat shartnomasining shartiga aylantirilsa; yoki
2. bunday xulq-atvor shaxsning ish unumdorligiga asossiz ravishda xalaqit berish yoki qo'rqituvchi, dushmanlik yoxud haqoratomuz ish muhitini yaratish maqsadini ko'zlasa yoki shunday oqibatga olib kelsa.

B. O'quvchilarga nisbatan jinsiy shilqimlik:

DOE xodimi yoki o'quvchilar bilan ishlaydigan shaxs hamda o'quvchi o'rtasidagi jinsiy xarakterdagi xatti-harakatlar hech qachon ixtiyoriy yoki o'rinli deb hisoblanishi mumkin emas. Ushbu reglamentning I.B-bo'limi bilan taqiqlangan o'quvchiga nisbatan jinsiy shilqimlik quyidagi holatlarni qamrab oladi:

1. bunday xatti-harakatlarga bo'ysunish o'quvchining sinfdan-sinfga o'tishi yoki ta'lim olishining sharti qilib qo'yilsa;
2. o'quvchi tomonidan bunday xatti-harakatlarga rozi bo'lish yoki ularni rad etish o'quvchining bilimini baholash yoki unga baho qo'yish uchun asos yoxud uning ta'limiga daxldor qarorlarda omil sifatida foydalanilsa; yoki
3. bunday xulq-atvor o'quvchining ta'lim olishiga asossiz ravishda xalaqit berish yoki qo'rqituvchi, dushmanlik yoxud haqoratomuz ta'lim muhitini yaratish maqsadini ko'zlasa yoki shunday oqibatga olib kelsa.

O'quvchilar tomonidan boshqa o'quvchilarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy shilqimliklar haqida ma'lumot olish uchun Maktablar tizimi rahbarining A-831 sonli reglamentiga ("O'quvchilar o'rtasidagi jinsiy shilqimlik", <https://www.schools.nyc.gov/docs/default-source/default-document-library/a-831-10-23-2019-final-remediated-wcag2-0> qarang.

Jinsiy va reproduktiv salomatlikka oid qarorlar: ushbu atama shaxsning jinsiy va reproduktiv salomatlikka, jumladan, reproduktiv tizim va uning funksiyalariga daxldor bo'lgan hamda shaxslarga tashkil etiladigan, taklif qilinadigan yoki ko'rsatiladigan xizmatlarni olish bo'yicha har qanday qarorini anglatadi. Bunday xizmatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin bular bilan cheklanib qolmaydi: reproduktivlik bilan bog'liq tibbiy muolajalar, jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklarning oldini olish, ularni testdan o'tkazish va davolash, hamda oilani rejalashtirish xizmatlari va bu bo'yicha maslahatlar, masalan, kontratseptiv dorilar va vositalar, shoshilinch kontratseptsiya, sterilizatsiya muolajalari, homiladorlik testlari va abort.

Jinsiy oriyentatsiya: shaxsning jins belgisiga ko'ra boshqa shaxslarga nisbatan haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan romantik, jismoniy yoki jinsiy moyilligi yoxud bunday moyillikning mavjud emasligi. Jinsiy oriyentatsiyaning keng qamrovli turlari mavjud bo'lib, ularga geteroseksuallik, gomoseksuallik, biseksuallik, aseksuallik va panseksuallik kiradi, lekin bular bilan cheklanib qolmaydi.

Ishsizlik maqomi: Ishsizlik atamasi ish joyiga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor bo'lgan va ish qidirayotgan holatni anglatadi. Biroq, qonunchilikda ish beruvchiga, agarda buning uchun ish faoliyati bilan bevosita bog'liq jiddiy sabab mavjud bo'lsa, nomzodning ishsizligini hisobga olishiga yoki nomzodning avvalgi ish joyidan bo'shash holatlarini surishtirishga ruxsat beruvchi istisnalar nazarda tutilgan.

Oilaviy zo'ravonlik, jinsiy jinoyatlar yoki ta'qib qilish qurboni: Oilaviy zo'ravonlikning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan qurboni bu jabrlanuvchining hozirgi yoki sobiq turmush o'rtog'i, jabrlanuvchi bilan birga yashayotgan yoki muqaddam birga yashagan shaxs, romantik yoki yaqin xarakterdagi doimiy ijtimoiy munosabatlarda bo'lgan yoki bo'lib kelayotgan shaxs, yoxud jabrlanuvchi bilan bir xonadonda doimiy yoki muntazam ravishda birga istiqomat qilgan shaxs tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik harakatlariga yoki tahdidlariga (o'z-o'zini himoya qilish harakatlari bundan mustasno) duch kelgan jismoniy shaxsdir.

Jinsiy jinoyatlar yoki ta'qib qilishning haqiqiy yoki deb taxmin qilinadigan qurboni bu jinoyat qonunchiligining 130-moddasi buzilishini tashkil etuvchi bunday harakatlarga duchor bo'lgan

shaxs yoki jinoyat qonunchiligining 120.45, 120.50, 120.55 yoki 120.60-moddalari buzilishini tashkil etuvchi harakatlarning qurboni bo'lgan shaxsdir.

Xodim o'zining mehnat majburiyatlarini bajarishi uchun oilaviy zo'ravonlik, jinsiy jinoyatlar yoki ta'qib qilish qurboni yoki shunday deb taxmin qilinayotgan shaxs maqomiga ega bo'lgani sababli asosli qulayliklar yaratilishini so'rashi mumkin. Xodimdan o'zining oilaviy zo'ravonlik, jinsiy jinoyatlar yoki ta'qib qilish qurboni ekanini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi so'ralishi mumkin. Asosli qulaylik so'rayotgan xodim bunday so'rov kiritilganidan keyin oqilona muddat ichida ushbu tasdiqlovchi hujjatning nusxasini taqdim etishi shart. Tasdiqlash talabi quyidagi hujjatlarni taqdim etish orqali qondirilishi mumkin: politsiya yoki sud hujjati; jabrlanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimi, vakili yoki ko'ngillisi, advokat, diniy xodim, tibbiyot yoki boshqa professional xizmat ko'rsatuvchi provayder tomonidan xodim yoki uning oila yoxud xonadon a'zosi oilaviy zo'ravonlik, jinsiy jinoyatlar yoki ta'qib qilish qurboni sifatida yordam so'rab murojaat qilganini tasdiqlovchi hujjat; yoki xodimning ma'lumotlari hamda qulaylik yaratish so'roviga mos keladigan boshqa ma'lumotlar.